Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirgul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process	1014
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English	1019
Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati	1025
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi	
Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari	1028
Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari	1031
Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish	1034
Iminova Z. B.	
Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati	1038
Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish	1044
Kalmuratovna Venera Sultanova	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari	1049
Kamola Abdullayeva	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
Karimov Orif Obloqul o'g'li	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
Makulov Shuxratjon Zokirovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
Mansurova Umida Mansur qizi	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
Murodov Nozimjon Olimjonovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
Nafasova Jamila Turg'un qizi	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli	1101
O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari	1104
Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari	1112
Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma’mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчебра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	



MAKTABGACHA TA'LIMDA ESTETIK TARBIYA BERISHNING MAZMUNI VA SHAKLLARI

Altibayeva Gulbaxor Majitovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil etish kafedrası o'qituvchisi

ORCID ID: 0009-0006-0289-9576

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetik tarbiyaning mazmuni, asosiy shakllari va ularni samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilingan. Estetik tarbiya bolalarning go'zallikni his etish, san'at asarlaridan zavqlanish, badiiy did va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon sifatida yoritilgan. Maqolada estetik tarbiyaning asosiy yo'nalishlari – musiqa, tasviriy san'at, adabiyot hamda tabiat go'zalliklarini idrok etish orqali bolalarda estetik his-tuyg'ularni shakllantirish metodlari bayon etilgan. Shuningdek, estetik tarbiyada o'yin, mashg'ulot, ekskursiya va bayram tadbirlari kabi faoliyat turlarining o'rni va ahamiyati ilmiy asosda ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: estetik tarbiya, maktabgacha ta'lim, go'zallik, badiiy did, ijodkorlik, pedagogik jarayon, estetik faoliyat.

Abstract: This article analyzes the content, major forms and effective methods of organizing aesthetic education in pre-school educational institutions. Aesthetic education is described as a pedagogical process aimed at developing children's sense of beauty, appreciation of works of art, artistic taste and creative abilities. The article outlines the main areas of aesthetic education – music, fine arts, literature and the perception of natural beauty – as key approaches to forming children's aesthetic feelings. In addition, the role and importance of such activity forms as games, learning sessions, excursions and festive events in aesthetic education are discussed.

Key words: aesthetic education, preschool education, beauty, artistic taste, creativity, pedagogical process, aesthetic activity.

Аннотация: В данной статье проанализированы содержание, формы и эффективные пути организации эстетического воспитания в дошкольных образовательных учреждениях. Эстетическое воспитание рассматривается как педагогический процесс, направленный на развитие у детей чувства прекрасного, умения получать удовольствие от произведений искусства, художественного вкуса и творческих способностей. В статье раскрыты основные направления эстетического воспитания – музыка, изобразительное искусство, литература и восприятие природной красоты как средство формирования эстетических чувств детей. Также показана роль и значение таких форм деятельности, как игры, занятия, экскурсии и праздничные мероприятия.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, дошкольное образование, красота, художественный вкус, творчество, формы воспитания, эстетическая деятельность.

KIRISH

Estetik tarbiya mazmuniga bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bolalarning estetik faoliyatida amalga oshiriladigan estetik tuyg'u, qiziqishlar, talablar, baholash va didni tarbiyalash kabi masalalar kiradi. Atrof-muhitni estetik idrok etish jarayonida bolalarda go'zallik to'g'risidagi bilimlar shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berish masalalari har doim ta'lim-tarbiya ishining asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Xalqimiz azaldan ma'naviy fazilatlariga boy bo'lib kelgan. Har bir ota-ona farzand tarbiyasida ularning xulq-atvori, yurish-turishiga, jamiyatda o'zini tutishiga ayniqsa e'tibor qaratgan. Ularning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatishlari, o'rinsiz nojo'ya harakatlarga yo'l qo'ymaslikni bola tarbiyasining ahamiyatli omili deb hisoblaganlar.

Bolaning erta davrdagi rivojlanishini atrof-muhitni, umumiy dunyoni estetik idrok etishga tayyorlik davri deb qarash mumkin. Bola shu davrda ba'zi aniq shakllarni: ritmik shakllarni, musiqa ovozi, ochiq ranglarni, ona mehrini, ko'ngil kuyini, kayfiyatni, tabassumni va yoqimli ohanglarni his etadi va ularga javob beradi. Bolada bir yoshligida sensor-hissiy idrok rivojlanib boradi. Keyinchalik bola idroki yanada takomillashib, nafaqat ba'zi predmetlar xususiyatlarini idrok etish, balki ba'zi san'at asarlarining estetik tomonlarini ham idrok etishni boshlaydi.



Bola atrofdagi hissiy ta'sirni vujudga keltiruvchi narsalarni ko'rish orqali nutqi rivojlanadi, bola lug'ati estetik xususiyatlar bilan boyib boradi: toza–iflos, katta–kichik, quvonchli–quvonchsiz va hokazolar.

Bolalar badiiy faoliyatining (musiqa, tasvirlash, badiiy so'z) ba'zi turlarini birgalikda amalga oshiradi. Kichik yosh guruhi bolalarining estetik didi sekin-asta rivojlanib, takomillashib boradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'limda estetik tarbiyaning mazmuni va shakllari bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar estetik did, idrok, badiiy tafakkur va ijodkorlikning shakllanishi bola shaxsining erta davrdagi rivojlanishida hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi. Yo'ldosheva va Qodirova estetik tarbiya jarayonida psixologik omillarning, xususan bolaning hissiy tajribasi va badiiy idrokining muhimligini ta'kidlab, musiqa, rang tasavvuri, nutqiy ifoda va tasviriy faoliyatning o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanishi estetik his-tuyg'ularni shakllantirishda samarali ekanini qayd etadi. Nazarovning izlanishlarida esa maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik qabul qilishning tabiiy rivojlani-shi, rang, shakl, ritm kabi elementlarning idroki orqali ularning badiiy tasavvuri kengayishi alohida ta'kidlangan. Muallif estetik tarbiyada tabiat go'zalligi, milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish nati-jadorlikni oshirishini ilmiy asoslaydi.

Karimova va Xo'jayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda estetik tarbiya shakllari sifatida o'yin, musiqiy mashg'ulotlar, tasviriy faoliyat, badiiy o'qish, sahna ko'rinishlari va turli ijodiy mashqlar kompleksi samarali vosita sifatida ko'rsatiladi. Abdurahmonova maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik didni shakllantirishda badiiy faoliyatning mazmuni, tarbiyachining ijodiy yondashuvi, ta'lim muhitining estetik tashkil etilishi va individual yondashuvning rolini asoslab beradi. Shuningdek, rus olimi M. Beep tomonidan ilgari surilgan bolalar badiiy tarbiyasi tamoyillari, xususan san'at asarlarini idrok qilish, tasviriy mashg'ulotlar orqali estetik his-tuyg'ularni rivojlantirish bugungi metodik yondashuvlar bilan uyg'unlashib, estetik tarbiyaning nazariy asoslarini mustah-kamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllarini aniqlash-ga qaratilib, asosan amaliy kuzatuvlar, pedagogik tajriba, tarbiyachilar bilan suhbatlar va bolalar faoliyatini tahlil qilish orqali ma'lumotlar to'plandi. Kuzatuvlar jarayonida bolalarning musiqa, tasviriy san'at, o'yin, tabiat go'zalliklarini idrok etish kabi estetik faoliyat turlaridagi ishtiroki, ularning emotsional javoblari va ijodiy harakat-lari muntazam qayd etildi. Pedagogik tajriba davomida turli estetik mashg'ulotlar samaradorligi sinovdan o'tka-zilib, bolalarning estetik didi va badiiy qobiliyatidagi o'zgarishlar baholandi. Tarbiyachilar bilan suhbatlar orqali estetik tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan usullar, muammo va ehtiyojlar haqida qo'shimcha ma'lumotlar olindi. Olingan ma'lumotlar tarkibiy–mantiqiy tahlil, taqqoslash va umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, estetik tarbiya shakllarining samaradorligi hamda bolalarning estetik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Estetik ruhda tarbiya – borliqdagi va san'atdagi go'zallikni tushunish, ulardan zavqlanish va uni yaratishga intilishni tarkib toptiradi. Estetik ruhda tarbiyaning maqsadi va vazifasi tarbiyalanuvchilarni tabiat va jamiyatdagi go'zallikni idrok qilish, uni to'g'ri tushunish va fahmlash, qadriga yetishga, shu asnoda o'z shaxsiy hayotining go'zal tomonini ko'ra bilishga, go'zal bo'lishi uchun kurashishga o'rgatishdan iboratdir. Estetik ruhda tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor normalarini tarkib toptirishga, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarimizdagi musiqa, rasm, loy ishi, qurish–yasash, applikat-siya va boshqa mashg'ulotlar estetik ruhda tarbiyaning vositasi hisoblanadi. Estetik ruhda tarbiya – badiiy-es-tetik ruhda tafakkurni shakllantirish, real hayotda san'atdagi estetik ruhdagi hodisalar, ko'rinishlar, holatlarni his qila olish, qabul qila olish, baholay olish qobiliyatlarini shakllantirish, shuningdek ijodiyotda faol ishtirok etishdir.

Estetik ruhda tarbiya o'zining maxsus vazifasini bajarar ekan, aqliy, axloqiy, mehnat va gigiena tarbiyasi bilan obyektiv bog'liqdir.

Rus yozuvchisi A. Chexov: "Insonda hamma narsa go'zal bo'lishi kerak", – degan edi. Ammo ularning orasida alohida ajralib turadigani ma'naviy go'zallikdir. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasav-vuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi.

Avvallari estetik tarbiya o'ta tor va bir tomonlama talqin qilinar, ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib, muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida in'ikos etilar edi. Ba'zan estetik tarbiyaga odamlarda yuksak estetik did–fariosatni shakllantirish sifatida qaralar edi. Bularning barchasi badiiy-estetik tarbiyaning vazifa va maqsadlari doirasiga kiradi.



Badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u estetik tarbiyaning asosiy mazmunini va maqsad yo'nalishlarini to'la ifodalamaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi – munosabatlarni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir. Estetik tarbiya bilan badiiy tarbiyani bir-biriga tenglashtirish ham, qorish tirish ham, qarama-qarshi qo'yish ham xato hisoblanadi. Shuni nazarda tutish lozimki, estetik tarbiya san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning estetik ongni shakllantirish maqsadi va vazifasi ko'proq yosh avlodga taalluqli estetik ongni shakllantirish demakdir. Estetik tomonsiz dunyoqarash chala, bir yoqlama bo'lib qolishi turgan gap. Estetik dunyoqarash falsafiy, axloqiy va boshqa dunyoqarash sohalaridan bahramand bo'lib, o'z navbatida ularni ham boyitib turadi.

Estetik tarbiya, eng avvalo, odamlarning estetik didlari shakllanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Shaxs uzligi uning estetik didi orqali namoyon bo'ladi. Estetik didda inson aqliy va hissiy dunyosi, orzu-umidlari, talab-ehtiyojlari, maqsad-manfaatlari ro'yobga chiqishi ifodalanadi. Did faqat kayfiyat baholarigina emas, balki inson faoliyati samaralari vositasida ham ifoda topadi. Inson faoliyatining barcha samaralarida uning didi aks etadi.

Estetik tarbiya o'z diqqat-e'tiborini shaxs estetik ehtiyojlarini shakllantirishga qaratadi, xilma-xil o'ta murakkab talab-ehtiyojlarni birlashtiradi, uyg'unlashtiradi va hamohang tarzda amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Estetik tarbiyaning inson talab-ehtiyojlari madaniyatini shakllantirishdagi o'rni ham beqiyosdir, zero insonning talab-ehtiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyg'usi ham mavjud bo'ladi. Bu mezon tuyg'usi shaxsiy ehtiyojni jamiyat ehtiyoji bilan mutanosib tarzda olib borishni taqozo etadi. Ana shu mezon tuyg'usida yetuklikka erishish estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Estetik ehtiyoj faqat moddiy va ma'naviy go'zalliklardan lazzatlanishgina emas, balki har qanday amaliyot sohasida narsalarni nafosat qonunlariga rioya qilgan holda yaratishni, faoliyatga go'zallikni tatbiq qilishni ham bildiradi. Shu bois estetik tarbiya hayot jabhalarining hammasiga: o'qish, mehnat qilish, ilmiy va texnik izlanish, jamoaviy faoliyatga tatbiq etilishi lozim bo'ladi.

Insoniyat go'zallikni butun rivojlanish tarixi jarayonida egallaydi va yaratadi. Go'zallik madaniy-tarixiy tajribaning bir qismi hisoblanadi.

Uning obyektiv mavjudligi estetik tarbiya nazariyasini, estetik tajribani yosh avlodga maqsadga muvofiq va muntazam ravishda berish va shu orqali uni estetik rivojlantirishni ta'minlashning faol usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bunda estetik tarbiya madaniyatini egallashning asosiy vositasi tarbiya va ta'limdir.

Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi.

Estetik tarbiya (nafosat tarbiyasi) – bu bolalarga voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Nozik didli bo'lish, go'zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida ko'ra olish – komil insonning eng zarur fazilatidir.

Farobiyning fikricha, estetik ruhda tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Estetik tarbiya – eng avvalo, har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, his-tuyg'ular va ko'nikmalarning o'sib borishi jarayonida insonning o'zi ham ma'naviy boyib, hayoti yanada sermazmun bo'ladi. Yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbati ortib boradi. Bularning hammasi har bir insonda go'zallikni xunukdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatini shakllantiradi, uni yanada rivojlantiradi.

Estetik tarbiya bugungi kunda shunisi bilan muhimki, did-farosatlilik mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik amaliy faoliyatda – har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan.

Donolardan biri: "Go'zallik axloq-odobning tug'ishgan singlisidir", – degan edi. Darhaqiqat, odob va nafosat tarbiyasi o'zaro chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi axloq-odobda, chiroyli xatti-harakatda, go'zal munosabatda va hayotga, kelajakka, insonlarga, tabiatga muhabbatda ko'rinadi. Xalqimiz: "Kamtarlik ham husn", – deydi. Mana shu birgina iborada chuqur ma'no bor. Estetik tarbiya orqali yoshlarda kamtarlik xislati tarkib topadi. Bu xislat kishilarning eng go'zal belgisidir.

Salbiy xatti-harakatlardan nafratlana bilish tuyg'usini ham estetik tarbiya paydo qiladi. Bunda badiiy asarlarning roli muhimdir. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagida Qimmatning xulq-atvori bolalar qalbida nafratni uyg'otadi. Zumradning tevarak-atrofga munosabati, mehnatsevarligi, kamtarligi qalblarda quvonchni paydo qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayrim yoshlar go'zallikni tor ma'noda tushunadilar. Ya'ni chiroyni ko'pincha husn-jamolda deb bilishadi. Bu bir tomonlama tushunchadir. Har tomonlama ma'noda esa chiroy husn-jamol,



qalb go'zalligida, mazmunli so'zda namoyon bo'ladi. Xalqimiz bejizga: "Chiroy husn-jamolda emas, fazl-kamolda", – deb aytmagani!

San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning hayol va tasavvurini ham rivojlantiradi.

Bolalarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to'g'ri tushunish, olijanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarda go'zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

Estetik taraqqiyot shaxsning estetik ongi, munosabati va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashtirishda uzoq vaqtni talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirishi natijasida yuzaga keladi. Bu har xil yo'llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning estetik jihatdan rivojlanishida ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya hal etuvchi rol o'ynaydi.

Estetik ehtiyoj – kishi borliqni, badiiy faoliyatni, uning har xil ko'rinishlarida estetik idrok etishga undovchi subyektiv omildir. Estetik ehtiyoj go'zallik to'g'risidagi fanning rivojlanish qonuniyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga undaydi.

Estetik qiziqish shaxsni san'at asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga undaydi. Estetik qiziqish estetik ehtiyojni yuzaga keltiradi.

"Estetik tarbiya" tushunchasi bilan bir qatorda "badiiy tarbiya" tushunchasi ham mavjuddir.

Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalashdir. U shaxsda san'at asarlarining shakl va mazmunini estetik idrok etishni rivojlantirish, badiiy didni shakllantirish va san'atning ma'lum turlari bo'yicha ijodiy faoliyatni, ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Uning natijasi fikrning paydo bo'lishida, uni amaliy faoliyatda qo'llashda, o'z bilim va taassurotlarini ko'ra bilishda, his-tuyg'ulari va fikrlarini samimiyat bilan ifodalashda namoyon bo'ladi.

Estetika tabiatdagi, jamiyatdagi moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlarida aks etgan, shuningdek estetik ongning paydo bo'lishi, rivojlanishi va vazifasi to'g'risidagi qonuniyatlarni, obyektiv borliqni estetik bilishning muhim usullaridan biri bo'lgan san'atning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Pedagogika estetikaning "Go'zallik – hayot demakdir" degan qoidasidan kelib chiqib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotdagi, mehnatdagi, turmushdagi kishilar munosabatidagi go'zallikda qatnashtirish, uning hayotni, san'atni idrok eta bilish qobiliyatini shakllantirishni o'zining bosh vazifasi deb hisoblaydi.

Go'zallik kishini olijanob qiladi, uning yuksak didli, pok, yaxshi inson bo'lishiga xizmat qiladi. Go'zallik bilan uchrashish kishida estetik his, ruhiy hayajon, beg'araz quvonch uyg'otadi. Estetik hisda idrok etilayotgan voqealikka nisbatan xudbinlik ohangi, shaxsiy manfaat nuqtai nazaridan g'arazli qarashlar bo'lmaydi. Ajdodlarimiz bu to'g'rida shunday yozadi: "Kishidagi go'zallik hosil qilgan sezgi, odam eng yaqin kishisi bilan uchrashganda paydo bo'ladigan porloq quvonchga o'xshaydi. Biz go'zallikni beqiyos sevamiz, undan eng yaqin kishimizni uchratganda quvongandek zavqlanib quvonamiz".

Go'zallik insoniyatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida yaratiladi va madaniy–tarixiy tajribaning bir qismini tashkil etadi. Uning mavjudligi, obyektivligi yosh avlodga estetik tajribani sistemali ravishda singdirish va shu orqali ularning estetik tomondan taraqqiy etishini ta'minlaydigan estetik tarbiya nazariyasining faol usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bunda tarbiya va ta'lim jamiyatning estetik madaniyatini o'zlashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Estetik tarbiya masalalarini chuqurroq tushunib yetish uchun uni to'rtta guruhga bo'lish mumkin:

1. Estetik idrokni rivojlantirish, estetik emotsiyalar, hissiy tuyg'ular va munosabatlar, qiziqishlarni shakllantirish;
2. Elementar estetik ongni shakllantirish;
3. Estetik faoliyatni o'zlashtirish;
4. Estetik va badiiy ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni estetik tarbiyalashning vazifalarini ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. **Bolalarda tevarak-atrofga estetik munosabatni shakllantirish:** tabiatdagi, san'atdagi go'zallikni ko'ra olish va his etish, go'zallikni tushuna olish; badiiy didni, go'zallikni anglashga ehtiyojni tarbiyalash.
2. **Xilma-xil san'at turlariga oid badiiy ko'nikmalarni shakllantirish:** bolalarni rasm chizish, turli buyumlarni yasash; qo'shiq kuylash, musiqaga mos harakatlanishga o'rgatish, so'z boyligini oshirish.



Tasviriy faoliyatning boshqa faoliyatlar bilan o'zaro bog'liqligi

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat bolalar bilan olib boriladigan butun ta'lim-tarbiyaviy ishning bir qismi hisoblanadi. Shu sababli u xilma-xil faoliyat va mashg'ulotlar turlari bilan bog'liq bo'lishi muhimdir. Rasm, loy, qirqib-yopishtirish ishlarida bolalar o'zlarining tevarak-atrofidagi narsa-hodisalar, badiiy asarlar, qo'shiqlardan olgan taassurotni aks ettiradilar. Rasm, loy, qirqib-yopishtirish va qurish-yasash ishlarining boshqa mashg'ulotlar va faoliyat turlari bilan bog'liqligi bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning samaradorligini, bolalarning turli mashg'ulotlarga qiziqishini oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarining shakllanishi uchun xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlarining bog'liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik his-tuyg'u, badiiy did, shu bilan birga axloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi va ko'nikmasi, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish hissining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Bolalar bilan tasviriy mashg'ulotlarda o'tkaziladigan suhbat ularda rasm chizishga, loydan narsa yasashga qiziqishlarini uyg'otishi zarur. O'tayotgan jarayon bilan bog'liq bo'lmagan yuzaki talablar bolalarning ijodiy emotsiyalarini so'ndiradi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jonli, emotsional, ertakli, syurprizli elementlar bilan o'tilishi lozim. Ta'lim jarayonini yengil, bolalar sezmaydigan qilib tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Tasviriy faoliyatning boshqa faoliyatlar – o'yin, badiiy o'qish va hikoya qilish, musiqa va hokazo bilan bog'liqligini sistemali olib borish kerak. Dastavval rasm, loy, qirqib-yopishtirish mashg'ulotlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash zarur. Bu bolalarning estetik tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Estetik tarbiya mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi; ular biror foydali ishni bajarayotib, biror kerakli narsani yasayotib o'z kuch va imkoniyatlarining o'sib borayotganini sezadilar.

Agar inson estetik jihatdan tarbiyalangan bo'lsa, u har qanday qiyin ishda ham go'zallikni ko'ra oladi va uni yaxshi, zo'r shavq-zavq bilan bajaradi.

Estetik va jismoniy tarbiya o'rtasida mustahkam bog'lanish bor. Kishining mustahkam sog'ligi, jismoniy kamolotisiz uning go'zalligini tasavvur etib bo'lmaydi. Uning chiroyli gavda tuzilishi, harakatlarni chiroyli bajarishi, musiqa ostida chiroyli harakatlar qilishi va hokazolar shular jumlasiga kiradi.

O'z navbatida boshqa ta'lim-tarbiyaviy ish bo'limlarining vazifalari bilan chambarchas bog'liqdir. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini o'tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlariga tayanadi.

Bolalar tasvirlamoqchi bo'lgan predmet haqida tasavvurga ega bo'lsalar, rasm, loy, applikasiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin.

Tasviriy faoliyat turlarining bolalar o'yini bilan bog'liqligi

O'yin bola hayotida katta o'rin egallaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida turli xil o'yinlar o'tkaziladi: mazmunli-rolli, dramalashtirish, didaktik va harakatli.

Har qanday o'yin bolaga zavq bag'ishlaydi. Shunday ekan, tasviriy faoliyat ham o'yin bilan bog'lab borilsa, u bolalarga qiziqarli va yoqimli bo'ladi va emotsional javobni uyg'otadi; bu esa bolalar ishlarining sifatiga yaxshi ta'sir etadi. Mashg'ulotlarda o'yinli holatlarni tashkil etish yaxshi natijalar beradi.

Bolalar bunday mashg'ulotlarda erkin harakat qiladilar. O'yin usuli barcha guruhlarda qo'llaniladi. Bu usul yordamida yengil va quvnoq muhit yaratiladi. Bolalarning mashg'ulotga qiziqishi ortadi, tasviriy faoliyat ko'nikma va malakalarini samarali egallaydilar.

O'yin shaklida o'tadigan mashg'ulot bolalarni qamrab oladi, ularning estetik, axloqiy jihatdan tarbiyalanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Rasm, loy, qirqib-yopishtirish o'yinchoq orqali o'yin bilan bog'langan bo'ladi. O'yinchoqni chizish, yasash, qirqib-yopishtirish barcha yosh guruh bolalarida zavq uyg'otadi. O'yinchoqlarni tasvirlash bo'yicha mashg'ulotlar yil davomida bir necha bor o'tkazilishi mumkin. Lekin ularning shakli turlicha bo'lishi zarur.

Bolaning hayotida syujetli-rolli o'yinlar muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun tasviriy faoliyatning o'yin bilan bog'lanishi bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Syujetli-rolli o'yinlarni mashg'ulot mazmuniga kiritish bolaning tasvirlash faoliyatiga qiziqishini, bajarayotgan ishining sifatini yaxshilaydi.

O'yin obrazlari tasviriy, quruq rasm chizish, loydan yasash, qirqib-yopishtirish ishlaridan ko'ra bolalar uchun qiziqarli. Bolaning kechinmalariga o'yin bo'yoq beradi. Bola o'z o'yinli rasmlarida to'la va yorqin ifodalanishga intiladi. Tarbiyachi esa bolaga bunda yordam berishi kerak.

Rasm, loy, qirqib-yopishtirishni dramalashtirib o'yin bilan uyg'unlashtirib olib borish bolalarni har tomonlama rivojlantirishdek vazifani amalga oshirishga katta imkoniyat yaratadi. Dramalashtirish o'yinlar uchun ko'pgina narsalarni bolalarning o'zlari yasashlari mumkin: dekoratsiya yoki uning qismlari, kostyum detallari, maskalar.

Tarbiyachining rasm, qirqib-yopishtirish mashg'ulotida bolalarga o'ynagan o'yinlarini tasviriy topshirig'ini berishi ularda tasviriy faoliyatga jonli qiziqishni uyg'otadi. Tasviriy faoliyatning dramalashtirish o'yini bilan



birlashtirib olib borilishi o'rta guruhdan boshlanadi. Rasm, loy, qirqib-yopishtirish mashg'ulotlarida bolalarga qahramonlar obrazlarini ifodalab berish vazifasi topshiriladi.

O'ynagan harakatli o'yinlarining tasviriy taklifi bolalarda zavq uyg'otadi. Bu o'yinlarning mazmunini faqat rasmda emas, balki qirqib-yopishtirishda ham oson tasvirlash mumkin.

Didaktik o'yinlar jarayonida bolalar predmetning belgilari, rangi, shakli, tuzilishi, kattaligini va boshqalar haqidagi bilimlarini mustahkamlab boradilar, xilma-xil sensor tajribaga ega bo'ladilar, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari boyiydi.

Didaktik o'yinlarning o'zi ham tasviriy faoliyatning mazmuni bo'la oladi. Bolalar qiziqish bilan didaktik materiallarni tayyorlaydilar.

Tasviriy faoliyatning bolalarning tabiat bilan tanishtirish, nutq o'stirish, musiqa mashg'ulotlari bilan bog'liqligi

Tabiat hamma vaqt tasviriy ijodiyotning mazmuni bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning rasmlari tabiat haqidagi bilimlarini aniqlashtirish, mustahkamlash uchun yordam beradi, bundan tashqari bolalarda o'sha kasbga nisbatan estetik his-tuyg'ularni uyg'otadi, bu esa hayotlarini yanada mazmunli va qiziqarli qilishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda estetik tarbiya bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Estetik tarbiya orqali bolalarda go'zallikni his etish, badiiy did, ijodkorlik, hayotdagi estetik hodisalarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida musiqa, tasviriy san'at, adabiyot, o'yin va tabiat go'zalliklarini anglash kabi faoliyat turlari estetik tarbiyaning asosiy shakllarini tashkil etadi. Tarbiyachining mahorati, ta'lim muhitining estetik tashkil etilishi va san'at vositalaridan samarali foydalanish bolalarning estetik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli estetik tarbiya mazmunini bolalarning yosh xususiyatlariga mos holda tashkil etish, ularni mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga rag'batlantirish zarur.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tizimida estetik tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish – nafaqat bolalarning badiiy qobiliyatini, balki ularning ma'naviy dunyosini, axloqiy fazilatlarini va hayotga bo'lgan estetik munosabatini shakllantirishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldosheva, N., & Qodirova, D. (2019). Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va estetik tarbiya. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Karimova, R., & Xo'jayev, M. (2022). Maktabgacha ta'limda badiiy-estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
3. Nazarov, Q. (2016). Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
4. Abdurahmonova, M. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik didni shakllantirishning samarali usullari. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, №4, 45–50-betlar.
5. Беев, И. (1978). Основы художественного воспитания детей. Москва: Педагогика.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.